



BELIEFS ABOUT FISH IN THE MYTHOLOGIES OF THE PEOPLES OF THE WORLD

Oltinoy Bakhtiyorova

Lecturer in the Department of Social Sciences at the
Urgench State Medical Institute
Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Fish, Legend, mythology, muddy water, Amu Darya, Khorezm, belief, Avesta.

Abstract: This article examines ideas about fish in ancient mythology, their place and role in the creation of the world. It also analyzes ideas and sources related to the ancient fishing culture in the Amu Darya basin.

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

DUNYO HALQLARI MIFOLOGIYASIDA BALIQLAR BILAN BOG'LIQ QARASHLAR

Oltinoy Baxtiyorova

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida o'qituvchisi
Urganch davlat tibbiyot instituti
Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Baliq, Afsona, mifologiya, loyqa suv, Amudaryo, Xorazm, etiqod, Avesto, ramz va tasavvurlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qadimgi dunyo tarixi mifologiyasida baliqlar bilan bog'liq qarashlar, undagi dunyo yaratilishi hususidagi mulohazalarda baliqlarning tutgan o'rni va ro'li yoritilgan. Shu bilan birga, Amudaryo havzalarida qadimdan mavjud bo'lgan baqliqchilik madaniyati bilan bog'liq qarashlar va manbaalarni tahlil qilingan.

ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О РЫБАХ В МИФОЛОГИЯХ НАРОДОВ МИРА

Олтиной Бахтиёрова

Преподаватель кафедры «Общественных наук»

Ургенчского государственного медицинского института

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Рыба, Легенда, мифология, мутная вода, Амударья, Хорезм, верование, Авеста.

Аннотация: В статье рассматриваются представления о рыбах в мифологии древнего мира, их место и роль в сотворении мира. Одновременно анализируются представления и источники, связанные с древней культурой рыболовства в бассейне Амударьи.

Kirish. Ma'lumki dunyo xalqlaridagi orasida hayvonot olami ham o'ziga xos tarzda muqaddaslashtirilgan. Bu esa o'z navbatida muqaddaslashtirilgan hayvonlar haqidagi qarashlar va miflarni keltirib chiqargan. Shunday muqaddas jonivorlardan biri bu baliq hisoblanadini. Baliq deyarli barcha qadimiy madaniyatlarda hayot, farovonlik, suv unsuri, unumdorlik, donolik, himoya kabi ma'nolarni bildirgan. Bu tasavvurlar suv — hayot manbai bo'lgani uchun shakllangan. Baliqlar ayniqsa sharq halqlarida alohida muqaddaslashtirilgan. Muqaddas ziyoratgohlardagi suv havzalaridagi baliqlarga qo'l tegizish mumkin emas deb hisoblangan, chunki aholini tasavuriga ko'ra ular ko'rinishidan baliq xolos, [9, b.18] balki mahalliy aholi baliq qiyofasidagi avliyolardir deb qaraydilar, hatto ular o'lganidan ham shayxlar kafanlab ko'mishgan [6, b.324]. Aynan yuqoridagi sabablarga ko'ra suv havzalaridagi baliqlarni o'ldirish yoki ushlash og'ir oqibatlariga olib keladi, deb qaralgan [Dala yozuvlari] [3, b.72].

Baliq nafaqat shrq halqlari orasida, balki ko'plab jahon halqi madaniyatida tez ko'payshi va qimmatli oziq-ovqat manbai sifatida mo'l-ko'llik, farovonlik va unumdorlik ramzi hisoblangan. Ular, shuningdek, bilim va donolikni ramziy qiladi, ular o'zlarining aql-idroklari va ulkan va sirli okean tubida harakat qilish qobiliyatidan ilhomlangan. Bundan tashqari, turli xil ma'naviy va diniy kontekstlarda baliq imon va ilohiy aloqani bildiradi.

Baliqlar dunyoning turli xalqlarining mifologiyasi va dinida o'ziga hos o'rni bor. Dunyo tuzilishining uch bosqichli mifologik tizimlarida baliq quyi (suv osti, er osti) sathning zoomorfik belgisi bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, baliq tasvirini “Buyuk to'fon” tushunchasi bilan ham bog'laydilar. Afsonalarga ko'ra baliqlarning demiurgik roli baliqlar okean tubidan loy olib kelib quruqlik hosil qilganda ham faol, ham er osmonini qo'llab-quvvatlovchi sifatida namoyon bo'lgan.

Shuningdek baliqlarni ba'zi halqlarda xudolarga tenglashtirilgan. Jumladan, shunday xudolar polineziyaliklar orasida Ika-Roa, qadimgi semit xalqlarida Dagon, Gavayidagi akula xudolari va hindularda Matsya bor. [4, b.150]

Dunyo mifologiyasida suv parisi, triton, fir'avn va boshqalar kabi yarim odam, yarim baliq jonzoatlari haqidagi rivoyatlar keng tarqalgan. Britaniya orollari xalqlari orasida, ayniqsa Irlandiyada va dengiz qirg'oqlarida yashaydigan xalqlar orasida bunday mavjudotlar haqidagi e'tiqodlar katta ahamiyatga ega bo'lib, mahalliy folklorda o'z aksini topadi.

Asosiy qism. Baliqlar haqida O'rta Osiyo xalqlari tarixi haqida muhim ma'lumot beruvchi manbaa hisoblangan Avesto kitobida ham ma'lumot berib o'tilgan. Bundan tashqari butun musulmon olamining muqaddas kitobi hisoblangan Qur'oni Karimda ham Soffat surasida halollik ramzi hioblangan baliqlar nomi Yunus alayhisalom nomi bilan bog'liq bo'lib, hazrati Yunus – baliqchilar piri hisoblangan" [3, b.72].

Dunyoning ko'plab xalqlarining dinlarida baliq o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Qadimgi Mesopotamiyada baliq qadim zamonlardananoq xudolarga qurbonlik qilingan. Shuningdek, baliq suv xudosi Enkning asosiy ramzi edi.

Qadimgi Babil (miloddan avvalgi 1830 - mil. 1531 yillar) va Neo-Ossuriya (miloddan avvalgi 911–609) davrlarining muhrlarida baliqlar tez-tez uchraydi. [4, b.120]

Kassitlar davridan (miloddan avvalgi 1600-yillar – miloddan avvalgi 1155-yillar) erta forslar davrigacha (miloddan avvalgi 550–30-yillar) tabiblar va jodugarlar baliq shaklidagi marosim liboslarida tasvirlangan. Salavkiylar davrida (miloddan avvalgi 312–63) Beross tomonidan tasvirlangan afsonaviy Babil qahramoni Oann baliq terisiga kiyingan[8].

Baliq Suriya ma'budasi Atargatis uchun muqaddas hisoblangan va bu ma'budaga bag'ishlangan bayramlarda faqat uning ruhoniylari baliq iste'mol qilishga ruxsat berilgan[8].

Jahon dinlarida baliqrga munosabat alohida ahamiyat kasb etgan. Jumladn, Tanaxning bir qismi bo'lgan Yunus kitobi, Bibliyadagi qahramon Yunusni u sayohat qilayotgan kema ekipaji uni dengizga uloqtirganidan keyin bahaybat baliq uni yutib yuborib, uch kundan keyin baliq Yunusni qirg'oqqa qusganligi to'grida ma'lumotlar keltirilgan.

Baliq nasroniylikning dastlabki ramzlaridan biridir. Yunon tilida "baliq" *ἰχθος*, "ichthys" bo'lib, yunoncha "Ἰησὺς ἡρῆσος ἑτεοῦ ἑιδὸς ἑὸς" Inglizcha "Christus" so'zining qisqartmasi hisoblanadi va Xudoning o'g'li Najotkor" deb ta'riflanadi. Bu ibora tosh plitalarda - Quddusdagi muqaddas qoldiqlarda uchraydi. Usti xoch shaklidagi vertikal langarning ikki tomonida joylashgan ikkita baliq tasviri birinchi nasroniylar rimliklar tomonidan quvg'in qilingan davrda yashirin "parol" sifatida ishlatilgan. Shu sababli baliq taomlari butun dunyo bo'ylab marosim xizmatlarida ishlatilgan. [4, b.110]

Astronomiya va munajjimlikda ham baliqlar ramzi alohida ahamiyatga ega bo'lgan, jumladn "Baliqlar" xuddi shu nomdagi yulduz turkumiga asoslanadi, shuningdek, baliq bilan bog'liq yana bir yulduz turkumi - Janubiy baliqdir. Shunidek,

baliq Oy ramzi sifatida ham qaralgan. Alkimyogarlarning uchun esa suv ramzi sanalgan, tibbiyotda esa u flegmatik mijoz bilan bog'liq deb qarashgan. [4, b.118]

Aksariyat xalqlarning kosmogonik e'tiqodiga ko'ra, baliq hayotning paydo bo'lishining ramzi hisoblanadi, chunki hayot suvdan, shuningdek, sevgi va unumdorlikdan kelib chiqadi- degan qarashlar mavjud bo'lgan

Masalan VII -asrda Poltava viloyatining Zenkovo qishlog'i yaqinida topilgan bronza topilmalarda bog'lovchi rishtalar sifatida ilon, baliq va yirtqich qushlarga o'xshab, uchta birlashtirilgan tabiiy elementlarni anglatadi: havo, suv va er. [4, b.110]

Baliq tasviri ko'pincha O'rta Osiyodagi zargarlik buyumlari bezaklarida uchraydi va unumdorlik ramzi sifatida namoyon bo'lgan. Qadimda O'rta osiyo halqlari baliqning oltin haykalchasi tumor sifatida taqilgan. Afg'onistondagi Tillatepadan miloddan avvalgi I-asrga oid topilmalarda delfin baliqlari qisqich sifatida tasvirlangan. [1, b.324]

Baliq tasviri shimoliy tojiklar va o'zbeklarning ayrim an'anaviy zargarlik buyumlari bezaklarida ham o'z aksini topgan. Ushbu bezak "baliq dumi" yoki "baliq tarozilari" deb nomlanadi. [1, b.325]

Baliq uzoq vaqtdan beri dunyo aholisi orasida hosildorlik ramzi sifatida talqin qilingan va ba'zi halqlarda boylik va baxtning timsoli sifatida tasvirlangan [9].

XII-XIV asrlarga oid kitob miniatyuralarida va qabr relyeflarida qushlar va baliqlar «yuqori va pastki tubsizlik» timsolini bildirgan. Baliq timsollarda nisbatan kam ishlatilgan, chunki ular soqovlik va ovozsizlikni anglatadi. [5, b.75]

Evropa uyg'onish davri dunyoqarashi o'rta asr estetik g'oyalar tizimini o'zgartirdi va u orqali dunyoviy bilinlar rivojlana boshladi. Dunyo goyalar diniy tasavvurlardan rasmlarda ifodalana boshladi. Niderlandiya XV-XVI asrlarda Yevropa rangtasvirining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Shu davrning buyuk rassomi Pieter Bruegel Elderning "Flamand maqollari" (1559) asaridagi qahramonlar baliqqa mahsulot sifatida vizual munosabatda bo'lishadi, lekin rassom o'z syujetlarida baliqqaramziy ma'noda ifoda beradi [9].

Dunyo xalqlari mifologiyasida baliq ko'plab qarama-qarshi tushunchalarni anglatadi. Xususan e'tiboringizga turli mifologiyalardan misollar keltirmoqchimiz:

Atargatis va Dagon: Suriya sevgi va unumdorlik ma'budasi, baliq dumili ayol sifatida tasvirlangan. Finikiya xudosi Dagon ham baliq bilan bog'langan.

Ichthys: "baliq" degan ma'noni anglatuvchi va "Xudoning O'g'li Najotkor Iso Masih" degan ma'noni anglatuvchi erta xristian ramzi.

Ningyo: Yapon folklorida go'shti o'lmaslikni bergan, ammo qo'lga olinishi baxtsizlik keltirgan baliqqa o'xshash jonzot.

Xatmexit: hayot va himoyani ifodalagan, yaratilishning dastlabki suvlari bilan bog'langan va Isis bilan o'zlashtirilgan Misr baliq ma'budasi.

Timin: Hind mifologiyasida boshqa dengiz jonzotlarini yutib yuboradigan ulkan baliq, chuqurlikdagi ulkan jonzotlarning ramzi. [10]

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki baliqlar butun dunyo halqlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi, ularni mifologiyasida namoyon bo'lganligida hamda yuqoridagi ma'lumotlarda ham ko'rishimiz mumkin. Antik davr, Qadimgi davr tarixidan uyg'onish davri tarixi nuqtayi nazarida olib qaraydigan bo'lsak ularda ham baliqlar ijtimoiy hayotida alohida ahamiyat kasb etgan.

O'rta Osiyo aholisi orasida baliq va baliqchilik muhim o'rin tutganligini mamlakatimiz aholisi orasida qadimdan mavjud bo'lgan so'zana matolarida ham baliq tasviri tushirilganligini ham ko'rishimiz mumkin. Bu qarashlardan kelib chiqib Xorazm vohasi aholisi hayotida baliqlaning o'rni muhimligi nuqtayi nazaridan hali shu kungacha etnografik nuqtai nazarda tadqiq qilinmaganligi sababli tadqiqot ob'ekti sifatida mavzuning nihoyatda dolzarbligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С. 325.
2. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. / Исследование и описание документов с историческим введением / Новые источники для истории Средней Азии. – Л.: Издание Государственной публичной библиотеки, 1940. – С. 139.
3. Абидова, З. Қ. (2018). Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари (тарихий-этнологик тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертация.
4. Соколова З.П. Культ животных в религиях / Отв. ред. В.Н. Насилов. М.: Наука, 1972. - 215 с.
5. Radlov, V. V. – Opyt slovarya tyurkskix narechiy (4 jild): Imperatorskaya 1893–1911.
6. Nazarov, B. – “O‘zbek xalq ertaklari poetikasi” Nashriyot: Fan. 1988
7. Mahmud Koshg‘ariy – Devonu lug‘otit turk(ilmiy-izohli nashr). Fan.1960–1963.
8. <https://deziign.com/project/ec5866df4dc94118a3a2689158c01126>
9. <https://www.rbc.ru/industries/videos/66d963df9a7947b267dbd34c>.
10. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.